

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI
BILIMLENDIRIW, ILIM HAM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI MADENIYAT HAM
TURIZM MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MAMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NOKIS FILIALI**

MUZIKA HAM KORKEM ONER XABARSHISI

ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТИНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientificmethodical journal

№ 1

SHOLKEMLESTIRISHI:

O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali

- Bas redaktor:** – Allanbaev Rudakiy, professor w.w.a
Bas redaktor orinbasari: – Kamalova Dilduza, filologiya ilimleri boyinsha
filosofiya doktori (PhD)
Juwapli xatker: – Gulmira Palwanova

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

- Omonilla Rizaev** – O'zbekiston mamleketlik k'rkem oner ham madeniyati instituti, professor w.w.a.
Hikmat Rajabov – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali, professor w.w.a.
Sayyora Gafurova – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi, professor
Oydin Abdullaeva – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi, professor.
Qurbanbay Jarimbetov – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Alima Berdimuratova – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Ziyada Bekbergenova – OzR IA Qaraqalpaqstan bolimi, professor.
Oqilxon Ibragimov – O'zbekiston mamleketlik k'rkem oner ham madeniyat instituti, professor.
Azizbek Turdiev – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatmn jaslar, madeniyat ham sport masaleleri komiteti basligi orinbasari, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).
Allanazar Abdiev – Filologiya ilimlerinin kandidati, Qaraqalpaqstan Respublikasi xaliq jazirshisi
Artiqbay Erejepov – Nokis qalaliq 1-sanli balalar muzika ham k'rkem oner mektebi, pedagogika ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).
Janabay Marziyev – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD), docent.
Iroda Mirtalipova – OzMK janindagi B.Zokirov atindagi MEKOl, k'rkem onertanirw ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).

JAMIYETLIK KENES:

- | | |
|-----------------------|-------------------------|
| Baxtiyor Sayfullaev | Najimatdin Muxameddinov |
| Ozodbek Nazarbekov | Najimatdin Ansatbaev |
| Komoliddin Urinbaev | Gulistan Annaqlicheva |
| Dawitbay Qurbaniyazov | Rayxan Saparova |
| Qalbay Turdiev | Paraxat Mamutov |

MAZMUNĠ

Алланбаев Р. Миллий мәдеиятымызды рауажландыруу жолында және бир кәдем	3
--	---

MUZİKATANIW

Мамутов П.А. Замангөй музыка тәлим системасын жетилистириуде рууыйлыктын орны	5
Пахратдинов Ш. Работа над произведением крупной формой	10
Sayidov T. D. Xonandalik ovozing fiziologik va akustik xususiyatlari	14
Мирталипова И.М. Ҳинд мусика назариясидаги товушкатор структураларига бир назар	16
Raimova D.M. O'rta Osiya musiqa cholg'ularining paydo bolish tarixi	20
Расулов М.М. Мусика, теле ва радио дастурларнинг муҳим компоненти ва композицион омили сифатида (тембр, темп, ритм, импульсивлик мисолларида)	23
Matyakubova U.G'. V-XV asrlar markaziy Osiyada musiqa madaniyatining nazariy asoslari	28

KŌRKEM ŌNER

Ражабов Х.Ж. Арсланбай Нажимов ижодига бир назар... ..	33
Matimuratov S.E. Qaraqalpaq kompozitori Kenesbay Abdullaev dōretiwshiligi haqqında	35
Qutekeeva R.A. Qaraqalpaq kōrkem ōnerinde Ilish Xojametovtın tutqan ornı	39
Allaniyazov B.Q. Muzika kōrkem ōnerinin bayteregi (<i>Kompozitor Najimatdin Muxammeddinovtın ōmiri ham dōretiwshiligi haqqında</i>)	44
Чаршемов Ж.А. «Қоблан» балетининг композицион хусусияти	48
Абдуллаева Ш.С. Труд все побеждает	57
Abatbaeva R.A. Qaraqalpaq kōrkem ōnerinde kompozitor Gayıp Demesinovtın tutqan ornı	61
Палўанова Г.А. «Аязий» драмасында кахарман характерин сәулелендириўдиц өзине тән қасийетлери	65
Палўанова Г.А. Каракалпакстанда театр режиссурасының пайда болыуындагы миллий дәреклер	68
Muxammeddinov Q. Milliy opera ham balet janrdagi tariyxiy shigarmalar	71
Parmonov D.R. «Doira va urma zarbli cholg'ulari» musiqa san'atining yorqın namoyondasi	75
Каримова И.И. Традиции исполнения музыки Каракалпакского композитора Гаип Демесинова	78

ATQARIWSHILIQ ŌNERI

Erejepov A.A. Baqsishılıq kōrkem ōnerinde dōretilgen qosıq ham namalarını jaslar tarbiyasındaǵı ahmiyeti	83
Tnıbaev P.K. Dirijyorlıq kōrkem ōnerinin turleri ham evolyuciyası	87
Шарипова А.Р., Сидикова А.М. К вопросу о фортепианном исполнительском искусстве в Узбекистане	92
Ayubov K.Z. Foniologiya va odam ovozi tasnifi	95
Ziyovutdinova Z.U. XIX asrning ikkinchi yarimida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi sohasidagi jiddiy o'zgarishlar	98
Dadaboyev X.M. Xalq cholg'ulari ansamblarini tashkil etish	100
Aliev N.G. Demli saz āsbaplar tariyxı, klassikalıq muzika ham onın būgingi kündeǵi tutqan ornı	102

Saidxonov A.S. Cholg‘u konsert janri tarixi va taraqqiyoti	105
Jumabaev A.E. Qaraqalpaq k�rkem �nerinde xaliq namali qosiqclarinn tutqan orm	110

MUZIKA PEDAGOGIKASI

Xojanazarov T. Vokal pedagogikasidagi metodlardi zamanag�y pedagogikaga aylantiruv usillari	115
Ходжаметова Г.И. Задача обучения, воспитания и развития детей в музыкальной школе	117
Botirova X.T. Musiqa taʼlimi pedagogikasida oʻquvchi yoshlarni maʼnaviy-axloqiy taʼlim-tarbiyasini shakllantirish	121
Saidumarov I. Taʼlim-tarbiya va shaxsning maʼnaviy kamoloti xususida sharq allomalarining qarashlari	124
Абдисултанов Ж.Дж. Болалар мусика ва санъат мактабларида «Мусика адаби�ти» фанини ўқитишда инновацион ёнлашув	128
Мат�кубов Э.Г. Мусикада модулли таълим асослари	131
Najmetdinova N.I. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatining ahamiyati va mazmuni	137
Iseev R.A. Fortepiano paninin jah�n muzika oquv prosesidagi ahamiyeti ham orm	141
Dauletbaev T.K. Milliy saz asbaplarm mektep oquvshilarma �yretiw�din ahamiyeti	145

J MIYETLIK-GUMANITAR P NLER

Бекбергенова З.У. Каракалпак халык д�станы «Қырык кыз» х�м х�зирги каракалпак драматургиясы	150
Утепова Т.Б. Маданиятлараро мулохот тахлиллари Европа олимлари назарида	153
Жумашева А.Х. Интерактивные при�мы и формы проведения практических занятий	159
Саденова Г.П. Каракалпак паремиологиясында жаксылык концепти	163
Mambetnazarov M.K. Hoja Axmet Yassawiy hikmetlerinin jaslar tarbiyasidagi ahamiyeti	166
Марзияев Ж.К. Маќаланыц публицистикалык сыпатламасы	169
Камалова Д.Э. Шыгарма композициясында турмыс шынлыгын с�улелендири� шеберлиги	171
Мамбетназарова Р.К. Идеино-тематические особенности жанр путешествия в Каракалпакской литературе (на примере «Путешествия в пять стран по океану» Тажена Изимбетова)	175

JAS IZERTLEWSHILER

Paxratdinov J.A. Kop qirli talant iyesi	180
Jumamuratova A.A. Qaraqalpaqstanda Opera janrinn tutqan orm	181
Muratbaeva A.A. Jaslard�n muzikal�q intellekt�n asir�wda muzika sinshisi Gulmaryam Kamalovanin orm	185
Orazalieva G.S. G�llengen dawirde — Jana namalar (Jamil Charshemov d�retpeleleri haqqında)	186
Segizbaeva G.Q. Qaraqalpaqstanda daslepki muzikal�q drama janrinn payda bolıwı	188

телеопера, телебалет, радиосахналаштиришлар учун кўплаб композиторлар мусиқа яратади.

Бугунги кунда тарбияланиб келаётган ёш баркамол авлод эришилган ютуқларга таяниб, ҳозирги жонли анъаналарни, шу жумладан Тв ва Радио тарихи ва ривожланиш босқичларида қайд этилган назарий қарашлар билан қиёсий ўрганиш эъборга лойиқлигини эътироф этиш лозимдир. Қайд этиш жоизки, Мусиқа, Теле ва Радио дастурларнинг муҳим компоненти ва композицион омили сифатида ўрганишлик уни ривожлантириш ҳамиша долзарб бўлибгина қолмай балки бугунги ижодий интилишларга илҳом баҳш этувчи ва айни чоғда истиқболга, эзгуликка интилган маънавий қудратдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Акбаров И.* Мусиқа лугати. Тшкент. 1997 й.
2. *Абдуллаев Р.* Ўзбек мумтоз мусикаси Тошкент: 2008 й.
3. *Виноградов В.С.* Классические традиции Иранской музыки.
4. *Гафурбеков Т.* Фолклорные истоки узбекского профессионального творчества. Тошкент: «Ўқитувчи», 1984 й.
5. *Жабборов А.* Ўзбекистон бастакорлари ва мусикашунослари. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2004 й.
6. *Коваль Г.Л.* Интонирование Узбекской традиционной музыки. Ташкент: «Фан», 1990 г.
7. *Кароматов Ф.М.* О локальных стилях Узбекской традиционной музыки. М., 1964 г.
8. *Матёқубов О.* Оғзаки профессионал мусиқа асосларига кириш. Тошкент: «Ўқитувчи», 1983 й.
9. *Мамадалиев Ф.* Миллий мусиқа ижрочилиги масалалари. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2001 й.
10. *Фитрат Абдурауф.* Ўзбек классик мусикаси ва унинг тарихи. Тошкент: «Фан», 1993 й.

V-XV ASRLAR MARKAZIY OSIYODA MUSIQA MADANIYATINING NAZARIY ASOSLARI

Matyakubova U.G'.

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Tarixdan ma'lumki yurtimizda qadim-qadim musiqa madaniyatiga e'tibor yuksak darajada bo'lgan. Mazkur maqolada V-XV asrlar yurtimizda musiqa madaniyati, uning ijtimoiy ahvoli, musiqashunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan allomalarning faoliyatlari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati, Barbad, Marv, Xisrav va Shirin, Ma'mun akademiyasi, Shoxnoma, Jome al-ulum.

Аннотация: Из истории известно, что в нашей стране с древних времен наблюдается высокий уровень внимания к музыкальной культуре. В статье представлены мнения о музыкальной культуре нашей страны V-XV вв., ее социальном положении, деятельности ученых, проводивших научные исследования по музыковедению.

Ключевые слова: Музыкальная культура, Барбад, Марв, Хисрав и Ширин, Академия Маъмуна, Шохнама, Джама аль-Улум.

Abstract: It is known from history that in our country, since ancient times, there has been a high level of attention to music culture. In this article, there are opinions about music culture in our country in the 5th-15th centuries, its social situation, and the activities of scholars who conducted scientific research on musicology.

Keywords: Music culture, Barbad, Marv, Khysrav and Shirin, Ma'mun Academy, Shokhnama, Jame al-Ulum.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri — O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy va qadimiy merosga ega. O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeologlari tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo'ladi va shu xalqlarning yuksak madaniyatga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Lekin arab istilosi davrida boshqa madaniy yodgorliklar qatorida musiqaga doir yozma manbalar kam qoldirilib, yo'qotib yuborilgan. Shuning uchun O'rta Osiyo xalqlarining so'ngi ming yillik madaniyati tarixiga oid yozma manbalargina bizgacha yetib kelgan.

Eramizning IV asridan boshlab O'rta Osiyoda quldorchilik asta sekin feodal tizimga almashdi. O'rta osiyoda yashagan turklar o'z davlatining so'nggi qismini – Qo'qonlik deb atay boshladilar. Ana shu vaqtdan boshlab turklar bilan mahalliy Sharqiy Eron xalqlarining qo'shilib yashash jarayoni boshlandi. IV-VII-asrlargacha bo'lgan madaniya va san'at turlarining, jumladan musiqaning yuqori darajada rivojlangani bilan harakterlanadi. Butun sharqqa mashxur bo'lgan va keyinchalik sharq adabiyoti mumtoz asarlarini tasvirlangan O'rta Osiyoning yirik sozanda va xonandasi, o'nlab kuylar ijodkori Barbad (yoki Faxshobod)ning nomi mashxur bo'ldi. Marv (*Turkmanistondagi hozirgi Mari*) shaxrida istiqomat qilgan Barbad VII asr boshlarida Eron Sosoniylari sulolasidan bo'lgan Xisrav saroyida xizmat qildi. Tarixchilar bergan ma'lumotlardan ma'lumki Barbad madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy g'alabalar to'g'risida ijod etgan. Ozarbayjon adabiyotining klassigi Nizomiy «*Xisrav va Shirin*» dostonida Barbadning san'at shinavandalariga favqulodda kuchli ta'siri to'g'risida yozgan.

Tasviriy san'atning ko'p sonli obidalarini mazkur davrning qurollari va musiqa ishtirokidagi urf-odatlarini to'g'risida ma'lumotlar beradi. Qadimgi panjikentdan topilgan yorqin naqshlar ana shular jumlasidandir. Unda ikki tomonli nog'ora va doira jo'rligida raqsli sahna, sopol idishda dafn marosimida ayol kishining marosim raqsini ijro etib turgan payti gavdalanitirilgan yorqin tasvir uchraydi. *Kumush laganga* ov manzarasi, ashula va raqs ishtirokidagi ziyofat naqshlangan. Mahalliy aholining musiqa hayotining ba'zi elementlarini me'ros qilib olganlar. Keyinchalik kitobi Ko'rqt shakliga kirgan ko'pgina epik turk afsonalari O'rta Osiyo xalqlarida eposning shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, xalq ijodi va mahalliy professional an'ana kelajakda og'zaki an'ana dagi yirik professional asarlar tug'ilish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ayrim keng tarqalagan maqom kuy tuzilmalarining turkcha, masalan, «Avji turk» deb atalishi bejiz emas. Ehtimol vafot etgan kishining jasi di tepasida turib maxsus aytuvchilar tomonidan deklomatsion harakterda marsiya aytib yig'lash odati qadimgi turk qabilalaridan qolgandir. Ehtimol o'zbek baxshilari turk xalq honanda – azonchilarining ijodiga mansub ifoda uslublaridjan foydalangandir, zeroki o'zbek folklorining rang-barangligi, uning kuy, lad va ayniqsa, ritmik tuzulishida ko'rish mumkin. Shunday qilib, VII-VI asrlarga kelib mahalliy musiqa an'analari aniq bo'lib qoldi. Xalq va professional musiqani og'zaki an'analari shakli vujudga keladi.

O'rta Osiyoning arab xalifaligiga qo'shib olinishi ma'lum darajada ijobiy ahamiyatga ega edi. Arablar o'z navbatida musiqa san'ati soxasida mahalliy aholidan ko'pgina narsalarni o'rganib oldilar. *A. Isfaxoniyning* arab tilida yozilgan «qo'shiqlar kitobi»ga ko'ra juda ko'p O'rta Osiyo kuylaridan arablar foydalangan masalan Musadij nomi Bilan mashhur bo'lgan birinchi arab qo'shiqchisi O'rta Osiyoda (boshqa mamlakatlar qatori) xam bo'lib, turli xil kuylarni tanlab oldi va ular zaminida qo'shiqlar ijrosi sistemasini yaratdi. Boshqa bir qo'shiqchi — Ibn Muqriz esa birinchi bo'lib, O'rta Osiyolik qo'shiqchilardan o'rgangan holda arab baytlarini ijro eta boshladi. Al Farobiy turli xil asboblari tovush qatorlarini o'rgana borib, Huroson tanburiga alohida e'tibor berganining o'zi ham mahalliy musiqa asboblari ning ahamiyati katta ekanidan guvohlik beradi. Samoniylar davlatida musiqali hayot (*IX-X asrlar*) O'rta Osiyo xalqlarining bosqinchilar zulmiga qarshi akti tufayli IX asrda xokimiyat

Somoniylar sulolasi qo‘lig o‘tdi. Somoniylar davrida O‘rta Osiyo deyarli yuz yil mobaynida chet el bosqinchilarining hujumiga duch kelmadi. Bu esa mamlakat xo‘jaligi va madaniyatining rivojlanishiga imkon berdi.

Bu davrda ajoyib olimlar, shoirlar, musiqachilar: mashxur matematik va astranom Axmad Farg‘oniy, arab tilidagi ilk musiqiy risolalaridan biri algoritm fanining asoschisi *Abu Abdullox Muxammad Xorazmiy* mashxur bo‘ladi. Ma‘lumki, *Muxammad Xorazmiy* Bog‘doddagi «*Ma‘mun akademiyasi*» (Bayt ul-xikma)ning sardori bo‘lgan. Rivoyatlarda aytilishicha, olimlar orasida shifo uslublari xaqida baxs ketganda, shogirdlardan biri Xorazmiyga – «Siz insonlarni davolashda nimani afzal ko‘rasiz, dori-darmonlarnimi yoki jarroxliknimi», - deb savol bergan ekan. Shunda ustozning «mening vatanimda ularni ikkalasidan ham musiqaning shifobaxsh kuchini ustun tutadilar» degan so‘zlari tarixga kirib qolgan.

Xorazmliklarning oddiy odamlaridan, hunarmandlaridan tortib, eng oliy tabaqa vakillarigacha o‘zini soz san‘atiga yaqin tutgan. Beruniyning dalolat berishicha, *Muxammad Xorazmshox (Ma‘mun)* musiqa va she‘riyatni chuqur idroklaydigan, atrofidagi shoir va sozandalargi nozik o‘qtirishlar qiladigan podshox bo‘lgan. Tarix kitoblarida Ma‘mun akademiyasining takibida musiqashunoslik ilmida e‘tibor topgan olimlarning nomlari xam tilga olinadi.

Xorazmshox Sulton Muxammad o‘zi Barbad (ud)da navba (turkumli asar)lar chalib, huzur topishni odat etgan, hattoki Xorazmshox muhim davlat ishlariga qo‘l urishdan oldin unga ruhiy tayyorlanib, miriqib kuy chalib, aql va tuyg‘ularin sozlab bo‘lgandan keyin kirishar ekan. Zamonasining eng «*Buyuk ustoz – Shayxi Sharif*» unvonini olgan qomusiy olim *Faxriddin Roziy* musiqashunoslik tarixida ham aloxida o‘rin tutadi. Uning «*Jome al-ulum*» qomusining musiqaga bag‘shlangan qismi Farobiy va Ibn Sino bilan keyingi davrlar O‘rtasidagi juda muhim bosqich hisoblanadi. Roziyning risolasi Farobiy va Ibn Sinolarning arab tilida yaratilgan musiqiy asarlaridan mahalliy tillardagi iboralarning qo‘llanilishi, masalan ud cholg‘usining qadimgi nomi «*Barbad*» bo‘lganligi haqidagi muloxaza bilan farq qiladi.

Zikr etilganlarga o‘xshagan ko‘plab ma‘lumotlar, Xorazm – musiqiy an‘analar avvaldan e‘zozlanib, taraqqiy etib kelayotgan, sozparvar maskan ekanligidan dalolat beradi. Rivoyatlarda aytilishicha «Xorazm poytaxti ko‘hna Urganch ma‘mur va obod zamonlarda Chingizxon ko‘hna Urganchni harob qilmasdan ilgari ko‘hna Urganch shahrida sokin bo‘lgan odamlarni aksarisi musiqani o‘zlaring bir hunar va kasb ittihoz qilganlar xatto mazkur asarlarning mubolag‘a bilan ko‘rsatganiga qaraganda yolg‘iz ko‘xna Urganch shahrida dutor sozini eshak yo‘nib, sotib o‘ngishiqlarini shul hunarlari bila o‘tgaradurg‘on kishilarning miqdori bir mingga etishadur» degan ma‘lumotlar mavjud.

Forobiy, O‘rta asrdagi barcha fanlarga katta hissa qo‘shgan O‘rta Osiyoning X-XI asrlardagi buyuk olimlari *Abu Rayxon Beruniy (973-1048)* *Abu Ali Ibn Sino (980-1037)* yashab ijod qildi. Somoniylar davlati shaharlari orasida Buxoro katta shuxrat qozongan. Buxoro ekonomika va madaniyat markaziga aylandi, adabiyot va musiqa rivojlandi. Saroy shoirlari va musiqachilarning ijodida asosiy janr hukmron shaxslarni maqtaydigan va sharaflaydigan qasida edi. Uning muqaddima qismiga cholg‘u asbobi jo‘r bo‘lar edi. Cholg‘u asbobi ba‘zan biror bir intim kechalarda qasidadan alohida holda ham ijro etilishi mumkin edi. Nasibdan musiqali - poetik san‘atning, ya‘ni musiqachi, qo‘shiqchi, mutrib tomonidan ijro etiladigan mustaqil formasi g‘azal tug‘ildi.

Madhiya xaraktridagi musiqali she‘riy asarlar bilan bir qatorda ilg‘or ijtimoiy qarashlar va kayfiyatlarni ifodalovchi qo‘shiqlar xam ijod qilinardi. Ba‘zan xajviy qo‘shiqlarda shoir – musiqachilar podsho va amaldorlarning xasis xamda pastkashligi, ruxoniylarning qizg‘anchiq, ikkiyuzlamachi va mutaassibliigi ustidan kular edilar. Bunday qo‘shiqlar omma O‘rtasida juda tez tarqalar, X asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan buyuk she‘r ustasi va ajoyib musiqachi so‘qir (rivoyatga ko‘ra) Rudakiy kabi mualliflar esa shuhrat qozongan edi.

Bu davrga kelib faqat xalq og‘zaki ijodida rasm bo‘lgan qadimgi epik afsona va rivoyatlarga qiziqish kuchaydi. Asosida ikki misrasi o‘zaro qofiyalanadigan o‘n bir bo‘g‘inli mutakarrib vazn yotgan professional qahramonlik eposlari vujudga keldi. O‘rta Osiyo xalqlarining eposidan o‘zining ajoyib «Shohnoma» dostonini yaratishda Firdavsiy unumli foydalangan. Bu asar o‘sha davr musiqasi,

musiqali hayoti, musiqa asboblari o'rganish uchun ham boy manba hisoblanadi. Masalan: saroy sifatlari manzarasining tasviri:

Darhol qo'shiqqa to'ldi aziz mehmonlar.
Botirlar, soqiylar, hushdil hushxonlar.
Changni o'rgatib chahuvchilar ham
Gulyuz qizlar-xizmat qiluvchilar ham.
Rumiy shohi kabi chehralar gulgun.
Chang sehrida dillar hayqirar mammun.

O'sha davrda arfa va ud tipidagi torli hamda puflab chalinadigan nay tipidagi asboblari keng tarqaldi. Udsimonlardan kvarta bo'yicha sozlanadigan, besh-olti juft torli ud qo'llanilar edi. Ud egiluvchan patga o'xshash plektor bilan chalinardi. Darvishali Changiy udni barcha musiqa asboblari podshosi deb baholagan edi. «Shohnoma»da eslatilgan torli-qonunli asbob rud ham keng tarqalgan edi. Chang, nay va rud sadolariga bo'lgan muhabbati to'grisida keyinchalik XIV asr shoiri hofiz to'l-qinlanib yozgan edi. Doira ham keng tus olgan edi. Uning tasviri «Shoxnoma»ga ishlangan turli xil miniatyuralarda va boshqa qo'lyozmalarda tez-tez uchraydi. Rudakiy qasidalarida chang va to'rttorli barbad eslatiladi.

Forobiy tovushlarining xarakteriga ko'ra musiqa asboblari xilma-xil ro'l o'ynaganini ko'rsatib o'tadi: Janglarga mo'ljallangan cholg'u asboblari mavjud, ularning ovozi baland va keskin. Ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'u asboblari bor. Ayrimlari tovushi keskin va hazin bo'ladi, bir so'z bilan aytganda, ular shunchalik ko'p, shunchalik hilma-hilki, hammasini sanab o'tish qiyin. Shunday qilib, Somoniylar davrida cholg'u-asboblari ijrochilik keng kulamda rivojlandi.

IX-X asr musiqa madaniyati tarixida O'rta Osiyodan chiqqan buyuk olim **Abu Abdullah Muhammad ibn Yusuf al-Kotib al-Xorazmiy**ning «*Mafatixul-ulum*» («*Ilmlar kaliti*») ensiklopediyasining musiqa nazariyasiga bag'ishlangan qismi ham alohida o'rin tutadi. Al-Xorazmiyning asari O'rta Osiyo xalqlari fan va madaniyat tarixini yoritishda muhim manbalardan biridir. Sharq olimlari o'zlarining ensiklopediya tarzida yozilgan kitoblarida, dastlab musiqani falsafa fanlaridan biri deb hisoblaganlar, shu bilan birga, falsafa fanlarining biri sifatida o'z asarlariga kiritganlar. Bunda ular, shubhasiz, musiqaning badiiy-estetik kuchi va ijtimoiy-tarbiyaviy rolini hisobga olgan bo'lsalar kerak. So'nggi davrlarda esa musiqa ilmi matematika fanlarining biri sifatida ensiklopediya tarzidagi kitoblarga kiritilgan edi.

Al-Kindiy (IX asr), al-Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy kabi mashhur olimlarning asarlari ko'p asrlar davomida Sharq xalqlari musiqa nazariyasini sharhlab berishda asosiy manba bo'lib xizmat etdi va so'nggi davrlarda yaratilgan musiqa risolalarining mazmunini aniqlab berdi. Al-Forobiy zamonasidan boshlab. Qariyb XV asrlargacha yozilgan musiqaga oid nazariy risolalarning mavzuyi, mundarijasi ularning ichki mazmunidagi bazi tafovutlardan qat'iy nazariy bir-biriga juda ko'p masalalarda yakun turadi.

Musiqa nazariyasiga bag'ishlab turli davrlarda yaratilgan bu risolalarda ayrim masalalar yuzasidan bazi ixtiloflar mavjud. XIII asrning ulkan olimi Safiuddin Abdulmo'min al-Urmaviy, al-Forobiyning nazariy mulohazalarini bazi masalalarda to'g'ri kelmasligini isbotlashga harakat qilgan edi. Bunday ixtiloflar musiqa akustikasi, musiqa tovushi (savo yoki nag'ma), ritm (iqo') tarifi, ud asbobidagi ayrim pardalarning o'rnini aniqlashda va boshqa masalalarda o'z ifodasini topgan. Bunday ixtiloflarda qariyb, uch asrdan ko'proq davr musiqasining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlar o'z aksini topdi. Sharq musiqa risolalarida qo'yilgan masalalar hozirgi zamon boshlang'ich musiqa nazariyasiga yaqin turadi.

Lekin O'rta asr musiqa risolalarida sharq xalqlari o'tmish musiqasining amaliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar ham borki, hozirgi zamon musiqa nazariyasida bular umuman uchramaydi.

Oʻrta asr musiqa olimlari nazariy masalalarda koʻproq al-Forobiy, ibn Sino asarlarida berilgan tarifni asos qilib olganlar. Musiqa nazariyasi soʻnggi davrlarda yashab, ijod etgan olimlar — *Safuiddin Abdulmumin*, *Mahmud bin Masud ash-Sheroziy* (XIII-XIV), *Xoʻja Abdulqodir Marogʻiy* (XIV asr), («*Jamiul-alxan*», «*Makasidul-apqan*» risolalari avtor), *al-Qusayniy*, *Abduraqmon Jomiy* (XI asr) va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi. Bu olimlarning musiqa risolalarida maqom masalasi musiqa nazariyasining eng yirik va tub masalalaridan biri sifatida qaraladi. Chunki musiqa nazariyasini sharhlab berishdan maqsad uni jonli musiqa asarlari - maqomlar bilan bogʻlashdan hamda musiqa amaliyotini umumlashtirib tushuntirib berishdan iborat edi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, xalq maʼnaviyatining koʻzgusi boʻlgan oʻzbek xalq musiqa meʼrosining zarchashmalari tarixan olislardan boshlanib, xalq ijtimoiy xayoti bilan uzviy bogʻliq holda rivojlanib keldi. Xalq musiqa meʼrosi ilk koʻrinishi yuksak ongning rivojlanishi natijasida mehnat jarayonida vujudga kelgan. Oʻzbek musiqa sanʼati va madaniyatining rivojlanishi ilm-fan taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliqdir. Ularning ilmiy nazariy negizlari uzoq oʻtmishdanoq puxta ishlanib kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Mallayev N.* «Buyuk shoir va mutafakkir». – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019 yil.
2. *Solomonova T.E.* Oʻzbek musiqasi tarixi. – Toshkent. 1981.
3. *Matyoqubov O.* Ogʻzaki anʼanadagi professional musiqaga kirish Toshkent. 1983 yil.
4. *Matyoqubov B.* «Xorazm doston ijrochiligining zarxal sah ifalari». Xorazm. 1999 yil.
5. *Odilov A.* «Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi». T., Gʻ.Gʻulom 2002.
6. *Vizgo T.S.* «Музыкальный инструмент Средней Азии». Moskva. 1980.

